OMON MUXTOR - ROMANNAVIS

Furqatjon Karimov
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

XX asr boshlarida tug'ilgan o'zbek romanchiligi bugungi kunda nafaqat milliy, balki rus va jahon klassik romanchiligining ajoyib an'analarini davom ettirgan holda inson hayotining yangi-yangi jabhalarini qamrab olmoqda. Insonga uning ichki ruhiyati, o'y-fikri, orzulari tasviriga yangicha usulda yondashayotgan, adabiyotda o'z ovozi, o'z uslubiga ega so'zini ayta olish baxtiga sazovor bo'lgan iste'dodli ijodkor Omon Muxtordir. Adibning so'nggi yillarda chop etgan qator asarlari, umri davomida adabiy meros sifatida qoldirgan yigirmaga yaqin romani bizga yozuvchining iste'dodli, sermahsul ijodkor sifatida tanitadi. Yozuvchi asarlarida biz yangi yo'llar, shakliy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Tasvirlarda, xarakterlar mohiyatini ochib berishda adib jahon adabiyotining boy uslubiy an'analarini dadillik bilan milliy materialga singdira olishini, nafaqat jahon, balki milliy an'analarimizning folklor namunalaridan ham foydalanishi, uslubiy va shakliy izlanishlar qilishi, nasrda ham nazmni uyg'unlashtira olishi kabilarni ko'rishimiz mumkin. Dastlabki ikki romani ma'lum darajada an'anaviy uslubda bo'lsa, keyingi romanlar o'z shakli va yo'nalishi bilan butunlay yangichadir. Ular, asosan, o'zbek xalq ertaklari, qissalari, dostonlari va afsonalariga suyangan holda, bu kungi inson hayotini aks ettirish bilan birga, uning xayol olamiga, ruhiyatiga sayohatni eslatadi. Adib ijodiga xos bo'lib kelgan falsafaga moyillik bu romanlarda bo'rtib ko'rinadi. Inson qismati ham, uning ruhiy olami ham naqadar murakkab ekanligini aks ettiradi.

Adib ko'p qirrali, iste'dodli ijodkor deb bejiz e'tirof etilmaydi. Omon Muxtor shoir, yozuvchi, dramaturg. Nasrdagi ijodi hikoyalar yozishdan boshlagan adib "Yillar shamoli"(1976) keyingi nashrlarda "Buxorolik bir yigit"(1998) va "Egilgan bosh" (1989) kabi an'anaviy uslubda yozilgan asarlari bilan roman janrida o'z mahoratini sinab ko'rdi.

Uning oxirgi o'n yillikda yaratgan qator romanlari yozuvchini elga tanitdi.
"To'rt tomon qibla" trilogiyasi ("Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba"), "Ayollar mamlakati va saltanati" (1997), "Aflotun" (1998), "Ffu" (1997), "Navoiy va rassom Abulxayr" dilogiyasi ("Buyuk farrosh", "Ishq ahli"), "Maydon" (1999), "Xotin podshoh", "Muhabbat o'limdan kuchli"(2011) hamda "Odamlar kulishlari kerak" romanlari, avvalo, mazmun-mundarijasi, shakl-shamoyili, ifoda tarzining o'ziga xosligi, shaklning turfaligi bilan alohida afzalliklarga ega.

Uning zamonaviy va tarixiy mavzudagi romanlari o'zbek nasrining shaklan va mazmunan boyishida muhim o'rin tutadi. Undagi yangicha tasvir usullari, tafakkur tarzi va roman – hangoma, roman – rivoyat, asr romani kabi roman janridagi shakliy izlanishlari e'tiborga loyiq.

Buni adibning har bir romani adabiy jamoatchilik orasida turli bahslarga sabab bo'lgani "Xotin podshoh", "Maydon" hamda "Ishq ahli" romanlarining o'zidayoq yaqqol ko'rishimiz mumkin.

"Ko'plab o'zga adabiy janrlardan farqli ravishda romanning mavzu chegarasini belgilash deyarli mumkin emas. Roman hamma narsa haqida va har qanday hajmda bo'lishi mumkin. Uni tarozida tortib yoxud bosma toboq bilan chegaralab bo'lmaydi."Romandan katta hikoyalar" (Shukur Xolmirzaev) bo'lgani singari novelladan kichik romanlar ham bo'ladi. Qahramon yoxud muallif shaxsiyati qirralarining nechog'liq to'liq ochilganligi romanning romanligini o'lchaydigan birgina mezon,janrning muvaffaqiyatini belgilaydigan yagona omildir",-deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev.

Omon Muxtorning “Maydon” va “Aflotun” umuman olganda deyarli barcha romanlari talqin uslubi, voqelik talqini yechimi bilan bir-biridan farq qilsa-da, talqinga jalb etilgan manba va muammoni romanlar g‘oyasiga singdirib yuborish jihatidan o‘zaro mushtarak. “Ko‘zgu oldidagi odam”, ”Aflotun”, ”Ffu” romanlarida falsafiy mushohada, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba ”da psixologik tahlilning yetakchilik qilishi va absurd g‘oyalar bugungi kun misolida ochib berilishi romanchiligimizda noan’anaviy uslublarning yuzaga kelishida biz yashayotgan voqelik ham alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

“Har qanday asar kitobxon uchun yoziladi. Kitobxoni ko‘p mamlakat baxtli,kitobxoni yo‘q mamlakat baxtsizdir”-, degan edi yozuvchi Omon Muxtor haqli ravishda.

Texnika asri tobora rivojlanib borayotgan XXI asrning yigirma yilligida yashayotgan ekanmiz, internet, elektron kitob degan tushunchalar endi bizga yangilik bo‘lmay qoldi. Munaqqid Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda, kitobxon soni keskin kamaydi, lekin eng saralari xos kishilari qoldi.

Modern yo‘nalishda ijod qiluvchi Omon Muxtor romanlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Adib romanlarining soni o‘n to‘rttani tashkil etadi. Bu faqat roman janridagi asarlar soni. Demak, u mustaqillik davridagi eng sermahsul ijodkor sifatida e’tirof etish joiz. To‘g‘ri, har qanday yozuvchining iste’dodi uning qancha asar yozgani-yu, qancha ijod qilgani bilan emas, badiiy tafakkurga qanday o‘zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta’sir o‘tkazgani bilan belgilanadi. Omon Muxtor adabiy jarayon faollaridan edi. Uning “Maydon” va “Xotin podshoh” asarlarini adibning eng sara, eng pishiq romanlari deb e’tirof etish mumkin.

Omon Muxtor tajribalar qilish, ayniqsa, shakliy izlanishlari yozuvchining yana bir o‘ziga xos uslubini belgilaydi. U o‘n to‘rt romanida ham shakliy izlanishlar qilishi, shakl orqali mazmunning uyg‘unligiga erishishi kuzatiladi. Kutilmagan tasvir yo‘sinlari, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi vositalardan foydalanish adib romanlarining yetakchi xususiyati ekanligi ko‘rinadi. So‘z san’atkorining barcha romanlarida azaliy tuyg‘u muhabbat mavzusiga murojaat etadi. Asarlarida g‘aroyib voqea-hodisalar, inson ishonishi qiyin, faqat tasavvur eta oladigan,tafakkur mahsuli bo‘lgan hodisalarning kelishi tabiiy hol. Bu “Ming bir qiyofa”, ”Tepalikdagi xaroba” va “Muhabbat o‘limdan kuchli” asarlarida uchraydi.

Romanlarda xalq og‘zaki ijodi namunalari: Nasriddin Afandi latifalari, rivoyat, afsonalardan juda ko‘p o‘rinlarda foydalaniladi. Romanlarning hajm jihatidan qisqaligi bilan mini romanlarga yaqinlashadi. (An’anaviy qissalardan kichikroq,hikoyalardan kattaroq)

Insonning ichki olamida o‘zgarishlarni ko‘proq voqea-hodisalar asosida, badiiy tafakkur, ichki “ong oqimi” yordamida tasvirlash ustunligi; yozuvchining falsafiy mushohadaga o‘chligi; romanda qalamga olingan voqea-hodisalarning sodir bo‘lish davri nihoyatda kattaligi, xronotopning, makon va zamonning juda ham kengligi; romanlarda nasrning uyg‘unlashib ketganligi, uning his-tuyg‘ulari, hayot haqidagi falsafiy mushohadalari, o‘y-xayollari lirizm bilan sug‘orilganini ko‘ramiz. Adib romanlarining deyarli barchasida, ba’zilarining har bir qism, bobida ham asar g‘oyasini teran anglash, yozuvchi niyatini to‘laqonli ochish, ifodalash uchun epigraf qo‘llanishi, ularning asosiy qismi mumtoz adabiyotimizning nodir durdonalari tashkil etishi, adibning mumtoz adabiyotimiz bilimdoni ekanligi namoyon bo‘ladi.

Adib romanlarida so‘zlarning siniq mozaika tarzida berishi, ya’ni asardagi so‘zlarning bo‘g‘inlarga ajratib berishi, hamda ma’lum so‘zlarni imlo qoidalariga zid bo‘lsa-da o‘quvchini o‘ylantirish, adib keltirayotgan so‘zga e’tiborni tortish uchun ko‘p so‘zlarni barcha tovushlarini katta harfda berish tabiiy hol ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Omon Muxtorni Oybekdan so‘ng buyuk daho ijodkor Navoiyning to‘laqonli siymosini yaratgan mohir romannavis sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Omon Muxtor. Aflotun. – T.: Ma'naviyat, 1998.
2. Omon Muxtor. Ayollar mamlakati va saltanati. – T.: Sharq, 1997.
3. Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. – T.: Sharq, 1994.
4. Omon Muxtor. Muhabbat o'limdan kuchli. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2012.
5. Omon Muxtor. Navoiy va rassom Abulxayr – T.: Sharq, 2006.
6. Omon Muxtor. To'rt tomon qibla. – T.: Sharq, 2000.
7. Omon Muxtor. Xotin podshoh. – T.: Sharq, 2010.
8. Qozoqboy Yo'ldosh. Ochqichso'z. – T.: Tafakkur. 2019.
9. Qozoqboy Yo'ldosh. So'z yolqini. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2018.
10. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'at. – T.: Akademnashr. 2013.

Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Alisher Navoiy universiteti, 2018.

WORDLY KNOWLEDGE